



PROSPECTS FOR UZBEKISTAN'S MULTILATERAL COOPERATION IN THE FIELD OF EDUCATION DEVELOPMENT

Ma'murakhon Asrorkhujaeva

Doctor of Philosophical Sciences, PhD

Senior Lecturer at the Department of "International Relations"

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Uzbekistan, UNESCO, multilateral diplomacy, scientific diplomacy, science diplomacy, SDG 4, UNITWIN, international education classification, MOCTI, ideas laboratory.

Received: 04.10.25

Accepted: 05.10.25

Published: 06.10.25

Abstract: This article is dedicated to analyzing new directions emerging in the field of diplomacy amid complex processes and global political changes occurring in the modern international relations system. The study pays special attention to the issues of development in science and education, which are an important component of the cooperation between Uzbekistan and UNESCO. Programs implemented within the framework of Uzbekistan–UNESCO cooperation are examined, their results and existing problems are analyzed, and relevant scientific conclusions on the topic are presented.

TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH SOHASIDA O'ZBEKISTONNING KO'PTOMONLAMA HAMKORLIGI ISTIQBOLLARI

Ma'muraxon Asrorxojaeva

s.f.f.d. PhD

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

"Xalqaro munosabatlar" kafedrasida katta o'qituvchisi

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: O'zbekiston, YUNESKO, ko'p tomonlama diplomatiya, ilmiy diplomatiya, fan diplomatiyasi, BRM 4 (SDG4), YUNITVIN, xalqaro ta'lim klassifikatsiyasi, MOXTI, g'oyalar laboratoriyasi.

Annotatsiya: Ushbu maqola zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida kechayotgan murakkab jarayonlar va global siyosiy o'zgarishlar sharoitida diplomatiya sohasida yuzaga kelayotgan yangi yo'nalishlarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda O'zbekiston va YUNESKO o'rtasidagi

hamkorlikning muhim tarkibiy qismi bo'lgan fan va ta'lim sohaslarining rivojlanish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. O'zbekiston–YUNESKO hamkorligi doirasida amalga oshirilayotgan dasturlar o'rganilib, ularning natijalari hamda mavjud muammolar tahlil etilgan va mavzu doirasida dolzarb ilmiy xulosalar ko'rsatilgan.

ПЕРСПЕКТИВЫ МНОГОВЕКТОРНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА УЗБЕКИСТАНА В СФЕРЕ РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАНИЯ

Маъмурахон Асрорхўжаева

Доктор философских наук, PhD

Старший преподаватель кафедры «Международные отношения»

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Узбекистан, ЮНЕСКО, многосторонняя дипломатия, научная дипломатия, дипломатия науки, ЦУР 4, UNITWIN, международная классификация образования, МОХТИ, лаборатория идей.

Аннотация: В статье рассматриваются новые направления, возникающие в сфере дипломатии в условиях сложных процессов и глобальных политических изменений в современной системе международных отношений. Особое внимание уделяется вопросам развития науки и образования, являющихся важной составной частью сотрудничества между Узбекистаном и ЮНЕСКО. Анализируются программы, реализуемые в рамках сотрудничества Узбекистан–ЮНЕСКО, их результаты и существующие проблемы, а также представлены актуальные научные выводы по данной теме.

Globalashuv jarayoni, yer yuzida mavjud va yangi vujudga kelayotgan turli xil tabiiy, sun'iy tahdidlar davlatlar o'rtasidagi hamkorliklarni to'xtovsiz taraqqiy etishiga olib kelmoqda. Umuman olganda, har qanday muammo va tahdidlarning ildiziga qaratilgan e'tibor – islohotlar ta'lim sohasini rivojlantirish, ilmni kuchaytirishga borib taqalishini ko'rsatadi. Zamonaviy adabiyotlarda, dunyoning turli xil chaqiriqlari va o'zgarishlari ta'sirida ilm - fan sohasidagi diplomatiya tashqi siyosatdagi yangi va shu bilan birga kuchli vositaga aylangani xulosa qilinadi[1]. Hozirgi davrda O'zbekiston va YUNESKO bilan ta'lim sohasidagi hamkorlik aloqalarini tobora kengaytirib bormoqda. Zero, ta'lim va maorif davrimizning dolzarb masalalaridan hisoblanib, turlicha yondashuvlar hamda strategiyalar asosida izchil tadqiq etib borilishi muhim bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

O‘zbekistonning 35 milliondan oshib borayotgan aholisining 55 foizini yoshlar tashkil etadi. Bu ko‘rsatkichlar yillar davomida o‘sib borishi ta’kidlanmoqda[2]. Bu, ta’lim sohasidagi islohotlarning davomiy bo‘lishini ta’minlash, xalqaro tashkilotlar bilan bu borada hamkorlik olib borishning dolzarbligini yana bir ko‘rsatkichidir. Jahon hamjamiyati bugungi kunda ta’lim sohasiga katta e’tibor qaratmoqda. Xususan, davlatlar o‘rtasidagi aloqalarning mustahkamlanishida ham ta’limning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Har bir davlat, jamiyat hayotida farovonlik va yuksak taraqqiyotga erishishdagi asosiy mezonlardan biri ta’lim sohasining naqadar sifatli ekanligidadir. BMTning ta’lim sohasidagi 2030-yilgacha rivojlanish ustuvor maqsadlari va YUNESKOning ta’lim sohasidagi faoliyati birlamchi yo‘nalishlari ham aynan ushbu masalalarga qaratilgan.

BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari (BMT taraqqiyot dasturlari) – 2030-yilga qadar a’zo davlatlarning qashshoqlikka qarshi kurashish, barqaror rivojlanish va farovonlikka erishishida asosiy dasturulamal hisoblanadi. BMTga a’zo davlatlar tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari (bundan keyin BRM) 17 ta asosiy yo‘nalishdan iborat bo‘lib, ushbu dastur 2030-yilgacha bo‘lgan barqaror rivojlanish “yo‘l xaritasini” o‘zida aks ettiradi. O‘zbekiston Respublikasi ham bu dasturni qo‘llab quvvatlaydi. Bu borada 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi qarori imzolangan bo‘lib, ushbu qarorda milliy rivojlanishning turli yo‘nalishlari bilan bir qatorda ta’lim tizimini isloh etish bo‘yicha chora-tadbirlar ham belgilangan. Ushbu yo‘nalishlar uzoq vaqt davomida tahlil etilgan va barqaror rivojlanishni ta’minlovchi asosiy omillar sifatida baholangan.

Hozirgi davrda butun dunyo qashshoqlik darajasini pasaytirish, manfaatlar to‘qnashuvlari hamda boshqa muammolarning avj olishiga qarshi kurashish kabi muammolarni hal etishda sifatli ta’lim darajasiga erishish barqaror rivojlanishning asosiy garovi ekani tasdiqlanmoqda. 2030-yilgacha bo‘lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo‘yicha tizimli ishlar, xususan, ta’lim sohasida O‘zbekiston Respublikasida tegishli islohotlarni amalga oshirish belgilangan.

YUNESKO – BMT tizimida davlatlar o‘rtasida bir qator sohalarda hamkorlik o‘rnatish vositasida Yer yuzida tinchlikni doimiy hukmron bo‘lish maqsadini amalga oshiruvchi muassasa hisoblanadi. Ilmiy manbalarda yana bir qiziq tushuncha, “fan diplomatiyasi” - bugungi kunda keltirilgan muammolarni hal qilishda kuchli vosita bo‘lib xizmat qilishi isbotlangan. Masalan, AQSH davlat kotibi va xalqaro rivojlanish Agentligi (USAID) administratorining fan va texnologiyalar bo‘yicha maslahatchisi 2009-yilda e’lon qilgan maqolasida, XXI asrda insoniyat yuzlashayotgan yuzlab umumiy muammolarga qarshi davlatlararo ilmiy hamkorlikni qo‘llash bu

fan diplomatiyasi ekanligi keltiriladi. Keyingi tadqiqot ishida esa hech bir davlat yoki xalqni chetlab o'tmayotgan umumjahon muammolarni an'anaviy yo'llar bilan birga yana bir ta'sirchan vosita – fan diplomatiyasi orqali hal etish mumkinligi keltiriladi[3].

Demak, yuqorida keltirib o'tganimizdek, YUNESKO shu maqsadni amalga oshirishda ayni damda O'zbekiston va boshqa a'zo davlatlar bilan 80 yilga yaqin davr mobaynida "ilmiy diplomatiya"ni amalga oshirib kelayotgan tashkilot hisoblanadi. YUNESKO BRM 4 (SDG4 sifatli ta'lim) ni jahon miqyosida va o'z navbatida O'zbekistonda boshqaradi. Tashkilot faoliyatining asosiy yo'nalishlari savodsizlikka qarshi kurashish; ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlash masalalari bilan bog'liq muammolarni hal etish; jamiyatdagi har bir a'zoning sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish; kambag'allikni qisqartirish; ta'lim sohasida tashkilotning global va mintaqaviy rolini hamda ahamiyatini oshirish; zamonaviy global muammolarga ta'lim orqali yechim berish va shu kabi masalalardan iborat[4].

YUNESKOning ta'lim sohasi bo'yicha o'tkaziladigan onlayn xalqaro konferensiyasi 2030-yilga mo'ljallangan rivojlanish maqsadlarni amalga oshirish masalalarini muhokama qiladi. Ushbu konferensiyada mutaxassislar va ta'lim sohasining yetakchi vakillari ishtirok etib, mavjud muammolar tahlil etiladi[5]. Ta'kidlash joizki, YUNESKOning ta'lim siyosatining tub negizida sifatli ta'lim tizimisiz hech qanday muammolarni hal etib bo'lmasligi, har qanday mahalliy, mintaqaviy va global muammolar bevosita va bilvosita ta'lim islohotlari bilan bog'liq ekanligi yotadi. Bu esa O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlariga to'lig'icha mos keladi.

O'zbekistonda ta'lim islohotlarini amalga oshirish, uni xalqaro standartlarga integratsiyalash, milliy kadrlar tizimini tubdan o'zgartirish masalalarida davomli ravishda islohotlar olib borilmoqda. O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev davrida ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimiga alohida e'tibor qaratilib, bu borada keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Masalan, oliy ta'lim tizimini dunyo standartlari darajasiga olib chiqish, ularni xalqaro mingtalik ro'yxatga kiritish shular jumlasidandir. O'zbekiston ta'lim tizimi YUNESKO tomonidan qabul qilingan xalqaro ta'lim klassifikatsiyasi standartiga mos kelishi kadrlar tayyorlash tizimiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

O'zbekiston "Jaholatga qarshi ma'rifat" tamoyiliga asoslangan holda jismoniy va ma'naviy rivojlangan shaxslarni shakllantirish siyosatini olib bormoqda. 2023-yil davlat dasturini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili", 2024-yil "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilingani maqolaning kirish qismida ko'rsatilgan zamonaviy chaqiriq va o'zgarishlar zamonida qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishning o'ziga xos mexanizmlaridan hisoblanadi.

YUNESKO bilan fan-ta'lim hamkorlik yo'nalishida esa, 2018-2021-yillarga mo'ljallangan qo'shma Harakatlar rejasida 2021-2022 o'quv yilidan Toshkent arxitektura-qurilish instituti va

Samarqand davlat arxitektura-qurilish institutida madaniy meros obyektlarini asrash fakultetlari, Buxoro arxitektura va qurilish kollejida esa madaniy meros obyektlarini asrash yoʻnalishi ochilishi belgilandi [6].

Oliy taʼlim tizimida YUNITVIN dasturi, aslida, YUNESKOning global darajada OOʻYulari oʻrtasida akademik va bilim almashinuvini, universitetlar potensialining mobilligini taʼminlash maqsadida tuzilgan. Buning uchun dastur boʻyicha faoliyat yurituvchi YUNESKO kafedralari oʻzaro bilim, olimlar almashinuvlari, davriy va ilmiy seminarlar oʻtkazib turadilar. Bu borada hozirgi vaqtda Respublika boʻylab YUNITVIN kafedralari va markazlarini quyidagi jadvalda aniq koʻrish mumkin.

№	Oʻzbekiston Respublikasidagi YUNESKO kafedralari nomi [7]	Oliy oʻquv yurti	Ochilgan yili	Tartib raqami
1.	«Fizika va astronomiya YUNESKO kafedrası»	Oʻzbekiston Milliy universiteti, Toshkent shahri	1998-yil	298
2.	“Xalqaro huquq va inson huquqlari YUNESKO kafedrası”	Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent shahri	1998-yil	361
3	“Tarixiy markazlarni saqlash va boshqarish YUNESKO kafedrası”	Mirzo Ulugʻbek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti	1999-yil	493
4.	“Dinshunoslik va jahon dinlarini qiyosiy oʻrganish YUNESKO kafedrası”	Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi, Toshkent shahri	1999-yil	579
5.	“Bilimlar iqtisodiyoti YUNESKO kafedrası”	Toshkent xalqaro Vestminster universiteti	2006 yil	735
6.	«YUNESKOning Barqaror taraqqiyot uchun taʼlim	Urganch davlat universiteti	2011 yil	926

	kafedra»			
7.	YUNESKOning “ Suv diplomatiyasi, suv resurslarini boshqarish va atrof-muhitni muhofaza qilish kafedra»	Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti	2018 yil	1316
8.	“YUNESKOning istiqbolli boshqaruv va barqaror siyosatni ishlab chiqish uchun kelajak tadqiqotlari kafedra»	Toshkent xalqaro Vestminster universiteti	2022 yil	1578

YUNESKO ta’lim sohasini global rivojlantirishda turli davlatlar hamkorligi va homiyligi ostida quyidagi grant va dasturlarni e’lon qilib boradi.

- Qizlar va ayollar ta’limi sohasidagi yutuqlari uchun YUNESKO mukofoti;
- Barqaror rivojlanish uchun ta’lim bo’yicha YUNESKO-Yaponiya mukofoti;
- O’qituvchilarning samaradorligini oshirishdagi faoliyati va natijalari uchun YUNESKO-Hamdan bin Rashid Al Maktum mukofoti;
- Ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangani uchun YUNESKO-Qirol Xamad bin Iso Al-Xalifa mukofoti;
- YUNESKOning xalqaro savodxonlik mukofotlari: Savodxonlikni yoyishda qirol Sejong nomidagi YUNESKO mukofoti va savodxonlikni yoyishda Konfutsiy nomidagi YUNESKO mukofoti [8] kabilardir.

Ushbu tanlov va mukofotlar paragraf kirish qismida ta’rifi keltirilgan “fan diplomatiyasi”ning YUNESKO tarafidan amalga oshirilayotganining yaqqol isboti deyish mumkin. Shu o’rinda, dunyoning 50 dan ortiq davlatlarida bo’lib, tadqiqotlar olib borgan o’zbekistonlik olim Dilfuza Egamberdiyeva 2023-yilda o’zining mikrobiologiya sohasidagi tadqiqotlari uchun jahonning nufuzli YUNESKO-Karlos Finley mukofoti bilan taqdirlanganini keltirib o’tish kerak. Mukofot kubalik olim Karlos Finley sharafiga nomlangan bo’lib, u bir asrdan ko’proq vaqt oldin odamlarni sariq isitma bilan chivinlar yuqtirgan ekanligini aniqlagan. YUNESKO va Kuba hukumati ikki yillik mukofotni taxminan 40 yil oldin ta’sis yetgan. Olima uchun bu birinchi mukofot yemas. 2006-yilda u L’oreal-YUNESKO ilmiy tadqiqot sohasidagi

ayollar uchun stipendiyasi va Amerika Mikrobiologiya jamiyatining mukofotiga bilan taqdirlangan. 2013-yilda u YUNESKOning dasturiy bo‘limi hisoblanuvchi Rivojlanayotgan dunyo Fanlar Akademiyasining qishloq xo‘jaligi fanlari sohasidagi mukofotiga sazovor bo‘lgan. Shuningdek, 2019-yil hisobidan “Yilning eng yaxshi olimi” sifatida “Scopus-2019” mukofoti sohibasi hisoblanadi [9]. Birgina olimaning olib borgan tadqiqoti natijalari hisoblanmish ulkan yutuqlari – ilm -fan sohasidagi O‘zbekistonning YUNESKO bilan fan diplomatiyasining muvaffaqiyati deb ta’kidlash mumkin.

O‘zbekiston OTMlarida YUNESKO kafedralari tuzilishi 1998-yildan boshlangan. Masalan, Toshkent Islom Universitetida 1998-yilda ochilgan “Dinshunoslik va jahon dinlarini qiyosiy o‘rganish YUNESKO” kafedrasida bugungi kunga qadar faoliyat yuritib keladi. Bu kafedra ochilishida YUNESKO Bosh direktori Koichiro Matsuuroning shaxsan ta’lim muassasiga tashrif buyurishi muhim hisoblanadi. Tomonlar kafedraning ochilishi bo‘yicha o‘zaro kelishuvni 29-oktyabr 1999-yilda imzolaganlar [10]. Bu kafedra bilan birga, 2006-yilga qadar bo‘lgan davr mobaynida Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya Universitetida, O‘zbekiston milliy Universitetida, Samarqand davlat arxitektura va qurilish instituti, Samarqand kooperatsiya instituti, Toshkent davlat pedagogika instituti, Buxoro davlat tibbiyot instituti, O‘zbekiston milliy san’at va dizayn institutlarida YUNESKO kafedralari ochiladi. Hozirgi paytda, O‘zbekistonda YUNESKO kafedralari umumiy soni 8ta bo‘lib, O‘zbekiston milliy universiteti, Jahon Iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Xalqaro islom akademiyasi, Vestminster xalqaro universiteti (2 ta kafedra), M.Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura va qurilish instituti, Urganch davlat universiteti, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutlarida faoliyat yuritadi [11].

YUNESKO kafedralari almashinuvi va xalqaro hamkorligi borasidagi keyingi misol – 2015-yil 1-14-iyul kunlari YUNESKOning O‘zbekistondagi vakolatxonasi hamda Samarqand davlat arxitektura-qurilish institutining “Tarixiy markazlarni saqlash va boshqarish” YUNESKO kafedrasida Samarqand davlat arxitektura-qurilish institutida 8 nafar xorijiy talaba, 3 nafar xorijiy ekspert hamda institut 3 nafar professor-o‘qituvchilari, 11 nafar talabalarini ishtirokida “Samarqand shahridagi tarixiy hududlarni o‘rganish” mavzusida yozgi maktab ilmiy amaliyoti o‘tkazilgan. Mazkur yozgi amaliyot davomida Samarqand shahridagi tarixiy turar-joy binolari ro‘yxatga olinib, ularda yashovchi mahalliy aholiga mazkur tarixiy muhitga ega turar-joy binolarini yaxshi saqlash bo‘yicha tegishli tushuntirish ishlari olib borildi. Loyihada faol ishtirok etgan institut talabalaridan 8 nafari maxsus sertifikatlar bilan taqdirlandilar [12]. Fan diplomatiyasining amaliyotda navbatdagi tasdig‘i hisoblanadi.

YUNITVIN dasturida “YUNITVIN mezbon universitetlari” deb nomlanuvchi oliy o‘quv yurtlari bo‘lib, rivojlanayotgan davlatlar OTMLari bilan “qo‘shma ta‘lim dasturlari” orqali davlatlar ijtimoiy va iqtisodiy sohasi takomillashishiga hissa qo‘shuvchi mutaxassislarni yetishtirishda hamkorlik olib boradi. Koreya Respublikasining Xundun global universiteti YUNESKO va O‘zbekiston OO‘Yulari o‘rtasidagi ilmiy hamkorlik bunga misol bo‘ladi. Hozirgi kunda Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi va Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti bilan (2019-yilda) memorandum imzolangan bo‘lib, birinchi OTM va “UNESCO-UNITWIN” ta‘lim dasturi 2020-yilda tinglovchilarni Koreya Respublikasida o‘qishi uchun homiylik qilgan [13].

O‘zbekiston Respublikasining yoshlar va yoshlar ta‘limi bo‘yicha siyosati xalqaro miqyosda e‘tirof etilmoqda. Mamlakatimizda yoshlarga ko‘rsatilayotgan e‘tibor va imkoniyatlar BMTning 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish dasturi bilan o‘zaro hamohangdir. Yoshlar muammolari bandlikni ta‘minlash, tinchlik yo‘lida ta‘lim va sport kabi to‘rt yo‘nalishda belgilangan. Jahon yoshlarining talab-ehtiyojlarini qondirish, salohiyatini mustahkamlash va huquqlarini to‘laqonli ta‘minlash uchun BMTning “Yoshlar 2030” yoshlar strategiyasi qabul qilingan. Hujjatda “yoshlar sarmoya kiritilishi lozim bo‘lgan o‘ta qimmatli va nihoyatda muhim manba hisoblanadi, zero, kiritilgan sarmoyalar ko‘p marotaba o‘zini oqlay oladi”, deb ta‘kidlangan [14].

Ushbu hamkorlik O‘zbekiston tashqi siyosiy prinsiplariga to‘la mos keladi hamda mamlakatimizda olib borilayotgan ta‘lim islohotini o‘zaro xalqaro hamkorliksiz amalga oshirish mushkul hisoblanadi. YUNESKO - O‘zbekiston ta‘lim sohasida hamkorlik munosabatlari yoshlarni erkin fikrlashga o‘rgatish va xorijiy til ko‘nikmalarini oshirish, O‘zbekiston ta‘lim tizimini jahon ta‘lim standartlariga integratsiyalash hamda ta‘limda mavjud kamchiliklarni hamkorlikda hal etish imkoniyatlarini bermoqda.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda, birinchidan, YUNESKO g‘oyalar laboratoriyasi vazifasini bajarishda xalqaro standartlarni o‘rnatish, hamkorlik dasturlarini amalga oshirish, a‘zo davlatlar salohiyatni oshirish va erkin fikr hamda bilim almashinuviga ko‘maklashishda ko‘p tomonlama fan diplomatiyasini faol qo‘llayotganini xulosa qilish mumkin. O‘zbekiston Respublikasining o‘zaro ochiq, pragmatik, konstruktiv siyosati YUNESKO bilan munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqdi. So‘nggi yillarda yoshlarni har tomonlama yetuk kadr bo‘lib yetishishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda, bu esa, O‘zbekistonning har sohada yetakchi davlatga aylanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Yana bir e‘tiborga molik jihati, YUNESKoning rasmiy saytida keltirilgan maxsus maqola bo‘lib, unga ko‘ra tashkilotning ko‘p tomonlama hamkorligidagi yangi strategik siljish davrida hisoblanuvchi davlatlardan biri bu O‘zbekiston hisoblanadi. Shu ma‘noda ikki tomon hamkorligi

ustuvor sohasini ta'lim va fan tashkil qiladi. O'rganilgan manbalarning tahlili YUNESKO "Barqaror rivojlanish uchun ta'lim", inklyuziv ta'lim, sifatli ta'limni rivojlantirish, OITSga qarshi preventiv ta'lim kabi shiorlar ostida O'zbekiston ta'lim tizimida uzoq muddat va konstruktiv strategiyalarga asoslanib faoliyat yuritadi. Ushbu shiorlar ostida Tashkilotning ta'lim sohasidagi deyarli barcha tajribalarini bu boradagi davlat tajribasining o'ziga xosligi bilan uyg'un holda hayotga tatbiq etib kelayotgani rasmiy axborotlarda ta'kidlanayotgan bo'lsa-da, tadqiqotga tayangan holda, YUNESKOning maorif va unga bevosita taalluqli bo'lgan institut va ofislari bilan yanada yaqinroq, faolroq aloqa o'rnatishi, mavjud aloqalarni esa rivojlantirishi kerakligini taklif qilish mumkin.

Uchinchidan, YUNESKOning O'zbekiston ta'lim tizimidagi faoliyati bo'yicha keng xabardorlikni oshirish masalasida qisqa muddatli treninglar yoki tadbirlarni uzoq muddatliga aylantirish, soha vakillari va talaba-tadqiqotchilar orasida davriy YUNESKO seminarlarini tashkil qilish taklifini bildirish mumkin. Buni amalga oshirish istiqbolda, tomonlar o'rtasida ta'lim diplomatiyasi va fan diplomatiyalarini rivojlantirish, ularning natijaviy bo'lishi uchun keyingi ufqlarni aniq ko'ra olishga va YUNESKO-O'zbekiston ta'lim hamkorligi bo'yicha strategik yo'l xaritalarini ishlab chiqish uchun imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Д.Сайфуллаев. Ўзбекистон Республикаси маданий дипломатиясининг шаклланиши ва ривожланиши тарихи. – Т.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020. Б. 24.
2. Qarang: Мирзиёев Ш.М. Инсон кадри, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари, қонуний манфаатлари учун. – Т.: О'zbekiston нашриёти, 2022. – Б.10.
3. Fedoroff N.V. Science diplomacy in the 21st century // Cell, – 2009. – №1. – P.9–11.;
2. Legrand T., Stone D. Science diplomacy and transnational governance impact // British Politics, – 2018. – № 3. – P. 392–408.
4. UNESCO: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization [Elektron manba] // URL: <https://www.un.org/youthenvoy/2013/08/unesco-united-nations-educational-scientific-and-cultural-organization/>
5. UNESCO World Conference on Education for Sustainable Development [Elektron manba] // URL: <https://events.unesco.org/event?id=275743948&lang=1033>
6. O'zbekistonda 2 ta OTMda madaniy meros obyektlarini asrash fakulteti ochiladi. [Elektron manba] // URL: <https://xs.uz/uz/post/ozbekistonda-2-ta-otmda-madaniy-meros-objektlarini-asrash-fakulteti-ochiladi>

7. Jadval muallif tomonidan YUNESKO rasmiy sayti va mazkur Universitetlar kafedralarida olib borgan izlanishlari natijalari bilan uyg'unlikda tuzilgan. Batafsil qarang: <https://en.unesco.org/sites/default/files/list-unesco-chairs.pdf>

8. Деятельность ЮНЕСКО в области образования//Образование преобразует жизнь людей. URL: <https://www.unesco.org/ru/education/action>

9. Dilfuza Egamberdieva, Uzbek scientist behind “super crops”, wins UNESCO–Carlos J. Finlay Prize for Microbiology (“Супер экинлар” ортидаги ўзбек олими Дилфуза Егамбердиева Микробиология бўйича ЮНЕСКО–Карлос Ж. Финлей мукофотига сазовор бўлди)//Dilfuza Egamberdieva from Uzbekistan is this year’s winner of the UNESCO–Carlos J. Finlay Prize for Microbiology. She received the prize on 14 November 2023 at a ceremony organized at UNESCO headquarters. URL: <https://www.unesco.org/en/articles/dilfuza-egamberdieva-uzbek-scientist-behind-super-crops-wins-unesco-carlos-j-finlay-prize?hub=920>

10. Agreement between UNESCO and The Tashkent Islamic University. – P.4.

11. YUNESKO/YUNITVIN kafedralari dissertatsiyaning ilovalar qismida batafsil ko'rsatilgan.

12. Samdaqining hozirgi xalqaro faoloyati to'g'risida ma'lumot// Available at: <https://samgasi.uz/SamDAQIning-hozirgi-xalqaro-faoliyati-togrisida-malumot>

13. Handong Global University UNESCO UNITWIN Project. Available at: https://www.handong.edu/eng/Inter_cooperation/unitwin/

14. Барча режа ва ҳаракатларимиздан мақсад – одамларни рози қилиш // Янги Ўзбекистон газетаси. – No.77, – 2.